O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING

# Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2022 - yil 4 - oktabr 802-4-0-Q/22 Qashqadaryo viloyati hokimligi

## Viloyat hududidagi shahar va tumanlar markaziy ko‘chalari va avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish chora-tadbirlarini kuchatirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

**Q A R O R Q I L A M A N :**

1. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022- yil 11-iyuldagi 24/6-2128-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Satvoldiev), viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (B.Raximov) shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda, viloyat hududida transport harakat jadalligi yuqori va tezlik oqibatida yo‘l-transport hodisalari ko‘plab kuzatilgan avtomobil yo‘llarining ayrim uchastkalarida ilovaga muvofiq 100 km/soat tezlikdan 70 km/soat tezlikga o‘zgartirilsin va 3.24 “70 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Eshonqulov hamda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i Sh.Satvoldiev zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi** **M.Azimov**

Qashqadaryo viloyat hokimining
2022 yil 4 oktabrdagi
802-4-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

# Viloyat hududida tezlik oqibatida ko‘plab yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘layotgan avtomobil yo‘llarida tezlikni 70 kilometr/soatgacha cheklash belgilarini o‘rnatish joylari

## RO`YXATI

| № | Avtomobil yo‘li nomi | kilometr oralig‘i | Ma’sul tashkilotlar |
|---|---|---|---|
| 1. | M-39 “Almata-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” | 1147-1159, 1169-1173, 1190-1194, 1195-1203, 1214-1218, 1238-1242, 1245-1264, 1267-1270, 1301-1310 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 2. | A-380 “G‘uzor-Nukus-Beynau” | 8-16, 19-21, 22-47, 61-71, 86-94, 110-118, 135-150 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 3. | A-378 “Samarqand-G‘uzor” | 57-60, 65-80, 130-138, 141-144, 147-152 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 4. | 4R-79 “Qarshi-Xonobod-Chim-Chiroqchi-Shahrisabz” | 9-18, 29-36, 41-54, 56-57, 59-60, 64-69, 76-77, 86-95, 96-102 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 5. | 4R-84 “Yakkabog‘-Chiroqchi-Kukdala-Sho‘rbozor” | 11-15, 18-19, 23-26, 44-47, 49-50, 58-69, 71-74, 78-81 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 6. | 4R-87 “Yettitom-Qarshi” | 3-4, 8-12, 27-30, 33-44, 52-53 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 7. | 4R-88 “Mang‘it-Shurtangazkimyo majmuasi” | 2-9, 12-30 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 8. | 4R-89 “Qarshi-Tolimarjon-GRES-Amudaryo” | 7-17, 22-60 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 9. | 4R-89a “Talimarjon shaharchasiga kirish yo‘li” | 0-12 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 10. | 4R-90 “Qarshi-Bishkent-Kasbi-Koson” | 15-24, 26-39, 44-52 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 11. | 4R-92 “Qarshi-Tallikuron-Kasbi-Jeynov-Pomuq q” | 5-9, 14-18, 25-28 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 12. | 4R-95 “A-380-Pulati-Ayritom” | 2-4,12-49, 52-56, 59-68 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |
| 13. | 4R-234 “Koson Qarliq-Muborak” | 14-15, 21-32, 34-34, 41-43 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **14.** | 4K-319 “Tanxoz-Yakkabog‘ shahri-Esat-Qozoq” | 2-16 | Viloyat Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi |